

O'ZBEK TILIDA FE'LLI TURG'UN BIRIKMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Shohida Tahirova Nasriddinova

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti.

Tel: (99) 8145270 E-mail: shohidatohirova2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18582892>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida fe'lli turg'un birikmalarning tadqiqi va ular hosil qilgan semantik xususiyatlari ochib beriladi. Fe'lli turg'un birikmalarning aynan fe'llar ishtiroki va ularning ma'no xususiyatlari, og'zaki va yozma nutqdagi rivoji, badiiy va ilmiy matnlarga imkoniyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. O'zbek tilidagi yangi nashdagi frazeologik lug'atdan, izohli lug'atdan, o'zbek tili so'zlashuv uslubidagi so'zlar va iboralar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, fe'lli birikmalar, fe'lli turg'un birikmalar, semantik ma'no, ideografik sema, baho sema, frezeologik butunlik, frazeologik chatishmadir, ijobiy va salbiy ma'no, qo'shimcha ma'no, atash sema, ifoda sema, vazifa sema, frazeologik lug'at.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТОЙЧИВЫХ ГЛАГОЛЬНЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье раскрывается исследование устойчивых глагольных словосочетаний в узбекском языке и их семантические особенности. Речь идет об участии глаголов в устойчивых глагольных сочетаниях и их семантических особенностях, их развитии в устной и письменной речи, возможностях для художественных и научных текстов. Из фразеологического словаря в новой публикации на узбекском языке, из толкового словаря, слова и фразы разговорного стиля узбекского языка.

Ключевые слова: Узбекский язык, глагольные словосочетания, устойчивые глагольные словосочетания, семантическое значение, идеографическая sema, оценочная sema, фразеологическая целостность, фразеологическое сочетание, положительное и отрицательное значение, дополнительное значение, номинативная sema, экспрессивная sema, функциональная sema, фразеологический словарь.

SEMANTIC FEATURES OF FIXED VERB COMBINATIONS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. The article reveals the study of fixed verb combinations in the Uzbek language and their semantic properties. The participation of verbs in fixed verb combinations and their semantic features, their development in oral and written speech, and their possibilities for literary and scientific texts are discussed. From the phraseological dictionary in the new edition of the Uzbek language, from the explanatory dictionary, words and phrases of the Uzbek colloquial style.

Keywords: Uzbek language, verb combinations, fixed verb combinations, semantic meaning, ideographic sema, evaluative sema, phraseological integrity, phraseological hybrid, positive and negative meaning, additional meaning, nominative sema, expressive sema, function sema, phraseological dictionary.

Kirish: Mazkur ilmiy maqolamiz hozirgi zamonaviy o'zbek tilshunosligida faol qo'llanib kelayotgan fe'lli birikmalar, jumladan qo'shma fe'llarning semantik va struktur xususiyatlarini o'rganib, tahlil qilish masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbek tiliga yangi kirib kelgan, so'zlashuvda ommalashgan qo'shma fe'llarning semantik-struktur tahlil qilinishi tilshunosligimizda yangilik hisoblanadi, bu esa o'zbek tili lug'at boyligining yangi, zamonaviy o'zlashma so'zlar, atamalar orqali boyishi, ularning semantik-struktur xususiyatlarini tadqiq etish muammosini qo'yadi.

Maqolada qo'shma fe'llarning semalari, strukturaviy xususiyatlar, affiksalar bilan qo'llanishi, ularning kontekstda ifodalanishi haqida ma'lumot keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek tilida turg'un birikmalar, fe'lli turg'un birikmalar semantik xususiyatlarini Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, K.Bozorov, A. Hojiyev kabi olimlar o'rganishgan. Olimlar o'zbek tilining turg'un birikmalarni o'rganishda leksik, semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini o'rganadilar. Ular o'zbek tilida har bir leksema shakl va ma'noga egadir. Shunday ekan iboralar ham shakl va mazmunga ega bo'ladi. Turg'un birikmalar ikkita mustaqil leksemadan iborat bo'ladi. Iborada bu leksemalar alohida ma'nolarda emas, balki umumiy bir yaxlit ma'noga ega bo'ladi. Leksemalarda tag ma'no va ustama ma'no bo'ladi. Turg'un birikmalarda leksemalar ma'lum bir obraz asosida ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Bu ustama ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *bosh egmoq* asl ma'noda inson boshini pastga egilganlik ma'nosi tushuniladi. Ammo turg'un birikma sifatida "*birovga itoat etmoq*" ma'nosini bildiradi.¹ kabi nazariy ma'lumotlarni berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek tilida fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'ning birikishidan hosil bo'lgan yaxlit bir ma'no ifodalaydigan *dam olmoq, ko'ngil qo'ymoq, javob bermoq, imzo chekmoq* kabi birikuvlarni qo'shma fe'l va turg'un birikmaligini aralashtirib yubormaslik kerak. Turg'un birikmalarda ma'no butunligi bo'ladi, ammo forma butunligi bo'lmaydi. Turg'un birikmalar mazmun jihatida ikki hodisa ajratiladi:

- 1) lug'aviy ma'no, aniqrog'i - frazeologik ma'no,
- 2) baho semasi.

Frazeologik ma'no-frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuni nimanidir anglatishi, ifodalashi frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *tuyaning kallasiday* frazemasi hajmi odatdagidan ancha katta, yirik ma'nosini, *yurak-bag'r(i) qon bo'lib ketdi* frazemasi *dili tang bo'l, ziq bo'l* ma'nosini anglatadi.² Frazeologik ma'no tarkibini semantik tahlil qilish bilan ham ideografik semalar ajratiladi. Masalan, *ta'bi xira* frazemasi sifatlarining ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub. Bu guruh sifatlarining lug'aviy ma'nosi tarkibida kayfiyat, his-hayajonning ijobiy-salbiyligi, his-hayajonning kuchli-kuchsizligi kabi ideografik semalar ajratiladi. Ana shu semalar asosida yuqoridagi frazemaning ma'nosini kayfiyati biroz yomon holatda deb ta'riflash mumkin.³

Turg'un birikmalarda frazeologik butunlik tushunchasi mavjud. Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan frazema frazeologik butunlik deyiladi: *to'ydan ilgari nog'ora chal-yog' tushsa - yalagu(n)dek, katta og'iz* kabi. *Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy o'z xotinining katta og'iz va betamizligidan achchiqlanib yuzini teskari burdi.*

Frazeologik chatishma tushunchasi ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydigan, bu leksemalarga xos leksik ma'nolarni hisobga olmaydigan frazemaga frazeologik chatishma deyiladi: *boshini olib chiqib ket, o'pkasini qo'ltiq lab kabi. Bordi-yu Siz*

¹Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: 1992.- B.5.

²Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2006. B-432.

³Sh.Rahmatullayev Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: 2006. - B.437.

ham tisarilsangiz, Sizdan ham qo'limni yuvib, qo'ltig'imga uraman-u, boshimni olib hayyo-hayt deb chiqaman-ketaman Ovchi uzoqdan o'pkasini qo'ltiqib chopib keldi.

Baho semasi-frazema mazmun jihatining voqelikka munosabat bildirish belgisiga baho semasi deyiladi. Masalan, quyidagi matnlarda ishlatilgan frazemalar ma'lum voqelikni nomlaydi, *yer-u ko'kka ishonma*- o'ta darajada ardoqla- *bosh(i)ga ko'tar*, yuksak darajada izzat-hurmat qil, *mukkasidan ket* o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ketdi, shu bilan bir vaqtda bu voqelikka munosabatni ham ifodalaydi. Yuqoridagi frazemalarda ijobiy munosabat, keyingi frazemada esa salbiy munosabat ifodalanadi.⁴

Frazemalarda lisoniy ma'no va nutqiy ma'no. Masalan, *chakagi ochildi* frazemasida odatda *ko'p ma'ra* - hayvonga nisbatan, *uzluksiz jovra* - kishiga nisbatan ma'nolarini anglatadi.

Frazemalarda ham lug'aviy ma'noni va uning taraqqiyotini semantik tahlil usuli bilan o'rganish bu hodisalarni ravshanroq tasavvur qilishga imkon yaratadi. Masalan, *ko'ngli aynidi* - ikki ma'noli frazema. Bu frazemaning birinchi ma'nosi uchun semalarni quyidagicha belgilash mumkin: fe'l frazema bo'lgani sababli avvalo ta'sir ko'rsatish semasi belgilanadi. Ta'sir ko'rsatish ijobiy yoki salbiy bo'ladi, ta'sir etuvchi jism, aniqrog'i - ovqat, ta'sir kishi organizmida, aniqrog'i - ovqatlanish a'zolarida namoyon bo'ladi. Ovqatlanish a'zolariga ovqatning ta'siri jismoniy bo'ladi. Yuqorida ajratilgan semalar yig'imi shunday tartiblanadi: ovqatlanish a'zolari + jismoniy + salbiy + ta'sir ko'rsat. Ana shu semalar asosida bu frazemaning bosh ma'nosi ovqatlanish a'zolari qabul qilmagani tufayli *behuzur bo'l* deb ta'riflanadi. *Ko'ngli aynidi* frazemasining ikkinchi lug'aviy ma'nosi birinchisidan o'sib chiqqan. Yangi ma'no bu frazemani ovqatdan boshqa narsaga ko'chirib ishlatish natijasida yuzaga kelgan. Bunday ko'chirishda birinchi ma'no tarkibidagi salbiy, ta'sir ko'rsat-semalari saqlanadi, ovqatlanish a'zolari organizm semasi, hissiyot semasiga, shu bilan birga jismoniy semasi ham ruhiy semasiga almashadi. Natijada quyidagi semalar yig'imi voqe bo'ladi: hissiyot + ruhiy + salbiy + ta'sir ko'rsat. Ana shu semalar yig'imi asosida bu lug'aviy ma'no tabiatiga yoqmagani tufayli *ijirg'an* - deb ta'riflanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek tilida turg'un birikmalarning ko'chma ma'nodagi bog'lamlarini frazemalarni tahlil qilamiz. O'zbek tilida fe'lli turg'un birikmalarni ikki xil frazeologik ma'no va baho semasi jihatdan semantik tahlil qilamiz.

1. *Baloga qolmoq* - kutilmaganda tashvishda qolmoq, aybdor bo'lmoq frazeologik ma'noni anglatadi, salbiy ma'nodagi ideografik semadir. Balo leksemasiga bog'liq holda frazeologik butunlik ma'nosi mavjud. Baloga qolmoq frazemasida inson uchun tashvishning boshlanganligi baho semasi va salbiy munosabatni anglatadi. *Do'stiga yordam beraman deb, boshi baloga qoldi.*

2. *Bahridan o'tmoq* - o'zi uchun qadrlil bo'lgan, foydali deb hisoblaydigan narsadan vos kechmoq frazeologik ma'noni anglatadi. His-hayajon kuchli ideografik semadir. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. His-hayajon kuchligi, salbiy munosabat baho semasidir. *Yangi loyihani sinamay turib, eskisning bahridan o'tish to'g'ri emas.*

3. *Bel bog'lamoq* - biror vazifani bajarishga astoydil kirishmoq, harakatni boshlamoq frazeologik ma'noni anglatadi. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. Ijobiy munosabat baho semasidir. *Nazokat bu ishning tagiga yetish uchun astoydil bel bog'ladi.*

4. *Beliga tepmoq* - rejalashtirilgan yoki bajarilayotgan ishga xalaqit bermoq frazeologik ma'noni anglatadi. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir.

⁴Sh.Rahmatullayev Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: 2006. - B. 437.

His-hayajon kuchligi, salbiy munosabat baho semasidir. *Bir necha oylardan beri qilinayotgan mehnatning beliga tepidi-ya.*

5. *Burni ko'tarilgan* - dimog'dor, manman, o'zgalarni mensimaslik, maqtanchoq frazeologik ma'noni anglatadi. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. Salbiy munosabat baho semasidir. *Puli ko'payib, burni ko'tarilib qolibdi.*

6. *Vahimaga tushmoq* - qo'rqmoq, xavotirga tushmoq, frazeologik ma'noni anglatadi. His-hayajon kuchli ideografik semadir. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. His-hayajon kuchligi, salbiy munosabat baho semasidir. *Bugungi bo'lgan ishlardan raisning xabar topishini o'ylab, Mehriniso aya vahimaga tusha boshladi.*

7. *Gap tashlamoq* - muloqotga kirish uchun, fikrni bilish uchun bir - ikki so'z aytmoq frazeologik ma'noni anglatadi. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. Maqsadga qarab ijobiy yoki salbiy munosabatlar baho semasidir. *Anchadan beri qovog'ini solib turgan ayasiga, sekin gap tashladi.*

8. *Gardaniga olmoq* - barcha mas'uliyatni zimmasiga olmoq frazeologik ma'noni anglatadi. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. Ijobiy munosabat baho semasidir. *Bu masalada otangni ko'ndirishni o'z gardanimga olaman.*

9. *Dabdalasi chiqdi* - jazolanmoq, ahvoli tang bo'ldi frazeologik ma'noni anglatadi. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. His-hayajon kuchligi, salbiy munosabat baho semasidir. *Sinfidoshlar o'rtasidagi janjaldan keyin butun sinfning dabdalasi chiqdi.*

10. *Dog' tushdi* - o'ziga munosib bo'lmagan ishni qilish, uyatda qolish. O'zi uchun qadrlı bo'lgan narsadan vos kechmoq frazeologik ma'noni anglatadi. His-hayajon kuchli ideografik semadir. Leksemalar alohida ma'no ifodalamasligiga ko'ra frazeologik chatishmadir. Salbiy munosabat baho semasidir. *Uning axloqsiz, uyatsiz videolari sabab oilasi shaniga dog' tushdi.*

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendation). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tilida fe'lli turg'un birikmalar faol qo'llanib lug'at boyligimizni faol rivojlantirishda davom etmoqda. Biz mana shu ilmiy maqolamizda o'zbek tilida fe'lli turg'un birikmalar semantik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bu tahlil orqali og'zaki va yozma matnlar yaratishda, fe'lli turg'un birikmalarining ma'nolarini tushunishda, badiiy va ilmiy matnlar yaratilishida nazariy ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi. Toshkent: 1993. B.138.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: 1992. B. 407.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2006. B-432.
4. Qodirova M. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilish jarayoni. International scientific. 2022. B. 147.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati. - T.: Fan, 1964. B. 212.
6. Sulaymonova M. Fe'l so'z turkumi va uning leksik-semantik tasnifi. Oriental Art and Culture. 2021. № 6. B. 187.
7. G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish). Filol. fan. bo'y. fals. fan. dok. diss. Avtoreferat. 2017. B. 107.